

# BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI



2024

# Mundarija

Hisobotning maqsadlari .....	03	Kiberxavfsizlik .....	18
Boshqaruv raisining murojaati .....	04	Ekotizim .....	19
BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari .....	07	Onlayn xizmat .....	20
Umumiy ma'lumotlar .....	09	Ijtimoiy mas'uliyat .....	21
Barqaror rivojlanishni boshqarish .....	10	Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish .....	23
Korporativ boshqaruv tuzilmasi .....	11	Volontyorlik faoliyati va korporativ tadbirlar .....	24
Tashkiliy tuzilma .....	12	"Yashil shahar« loyihalari .....	26
Bank boshqaruvi .....	13	Elektron hujjat aylanishi .....	27
Ishbilarmonlik etikasi va korporativ boshqaruv kodeksi .....	14	Kontaktlar .....	28
Korrupsiyaga qarshi kurashish .....	17		





# Hisobotning maqsadlari

Kapitalbank" ATB birinchi marta Barqaror rivojlanish hisobotini tayyorlashda ishtirok etdi. Bank barqaror rivojlanishni boshqarish sohasidagi faoliyatida GRI (Global Reporting Initiative) nomoliyaviy ma'lumotlarni oshkor etish standartlariga rioya qiladi. Yillik integratsiyalashgan hisobotga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish maqsadida, bank faoliyatining ko'plab turli yo'nalishlari bo'yicha hisobot uchun ma'lumotlar to'plandi.

Bank barcha manfaatdor tomonlar bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va hozirgi hamda kelajak avlodlar manfaati yo'lida barqaror rivojlanishni maqsad qilgan. Bank har bir manfaatdor tomon bilan teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarni inobatga olish, shartnomaviy munosabatlarda ishtirok etishdan manfaatdorlik asosida o'zaro hamkorlik qiladi.

Bank iqtisodiyotning barcha tarmoq va sektorlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi natijasida BMTning global tashabbuslariga muvofiq ravishda barqaror rivojlanish sohasiga muhim hissa qo'shmoqda.



# Boshqaruv raisining murojaati

## Hurmatli hamkasblar, hamkorlar va mijozlar!

"Kapitalbank" aksiyadorlik tijorat banki — O'zbekistondagi birinchi xususiy tijorat banklaridan biri bo'lib, 2001-yilning aprel oyidan boshlab muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

Bank o'z faoliyatini boshlaganidan beri yuqori sur'atlarda rivojlanib, korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida ham, chakana savdo segmentida ham yuqori o'sishni namoyish etdi.

Hisobot davrida Bank o'zining iqtisodiyotning turli tarmoqlari va segmentlariga mansub mijozlariga qulay moliyaviy xizmatlarni taqdim etish bo'yicha ishlarini davom ettirdi. Raqamli ekotizimning dinamik rivojlanishi Bankka o'z xizmatlari bilan mamlakatning eng chekka hududlaridagi aholi va biznesni qamrab olish imkoniyatini yaratmoqda. Hisobvaraqlarni ochishga oid biznes jarayon optimallashtirildi va raqamlashtirildi, bunda sayyor xizmatlar joriy etildi. Bu esa tadbirkor bo'lish g'oyasidan dastlabki sotuvlarni boshlashgacha bo'lgan eng qisqa yo'ldir.

Vaqt o'tishi bilan innovatsiyalarning salmoqli ro'yxati bankka ko'plab mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish, xalqaro e'tirofga erishish va mamlakatning eng ishonchli hamda moliyaviy barqaror banklaridan biri sifatida obro' qozonish imkonini beradigan yangi texnologiyalar hisobiga mahalliy bozorda yetakchi o'rinni egallashga yo'l ochdi.

"Kapitalbank" ATB qisqa vaqt ichida aholi va tadbirkorlar orasida ishonch va obro'-e'tibor qozonishga muvaffaq bo'ldi. Bank faoliyatining muhim moliyaviy ko'rsatkichlaridan biri 2024 yilda olingan foydadir. Ushbu foyda moliya muassasasining butun faoliyati davomidagi eng yuqori qiymatga yetdi.

>2 mln kishi

Chakana biznes mijozlari

80 ming komp.

Korporativ biznes mijozlari

1,16 trln som

Banking sof foydasi

## "Kapitalbank" ATB xalqaro reyting agentliklarining yuqori reyting baholariga ega

S&P Global Ratings

B+  
«Barqaror»

FitchRatings

B  
«Barqaror»

MOODY'S

B1  
«Barqaror»

2025 yil 1 yanvar holatiga ma'lumot

Jamoaning hamjihatlikdagi mehnati tufayli, bank "International Finance" nashri tomonidan 2024 yilda O'zbekistonning eng yaxshi chakana va innovatsion xususiy banki deb e'tirof etildi.





# Boshqaruv raising murojaati

Makon Marketing Forum 2024 ga ko'ra "2023-yilda O'zbekistonda moliya sohasida innovatsion mahsulotlarni yaratishdagi yutuqlari uchun" mukofotiga sazovor bo'ldi



"PLUS Galaxy Award" tanlovining "Kichik biznes uchun eng yaxshi xizmat" nominatsiyasida g'olib chiqdi.



ESG loyihasi uchun "Oltin Chinor" birinchi Milliy mukofotiga sazovor bo'ldi va HR jarayonlari auditidan muvaffaqiyatli o'tgan hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi Top employer sertifikatini olgan O'zbek-istondagi birinchi bank bo'ldi.



Pekinda bo'lib o'tgan SIBOS 2024 xalqaro forumi doirasida Kapitalbank Raiffeisenbank International AG kompaniyasining "Muxbirlik aloqalari va to'lovlarni amalga oshirish sohasida erishgan yutuqlari uchun" mukofotini qo'lga kiritdi.



Forum doirasida O'zbekistonning milliy to'lov tizimi UZ-CARD tomonidan Kapitalbank biznesga oid moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlarni rivojlantirishga qo'shgan muhim hissasi uchun "Korporativ biznesni rivojlantirishda yetakchi" degan faxriy mukofot bilan taqdirlandi.



Biznes ko'rsatkichlarining o'sishiga e'tibor qaratish va mijozlarga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bilan bir qatorda, ESG sohasi faol rivojlantirishi bank uchun muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Bugun men sizlarga "Kapitalbank" ATBning yillik hisobotini taqdim etishdan mamnunman. Ushbu hisobotda bankning moliyaviy faoliyati asosiy natijalari, shuningdek, operatsion va ijtimoiy jihatlar batafsil yoritilgan. Mazkur hisobot so'nggi yillardagi sa'y-harakatlarimiz va erishgan yutuqlarimizni aks ettirib, barqaror rivojlanish hamda ijtimoiy mas'uliyat sari intilishimizni namoyon etadi.

# Boshqaruv raisining murojaati

Ushbu hisobotda biz ESG sohasida erishgan yutuqlarimiz va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga bo'lgan sadoqatimizni mamnuniyat bilan ko'rsatib o'tmoqdamiz. Bank mijozlarga qulaylik va foyda keltiruvchi innovatsion raqamli yechimlarni taklif etish orqali rivojlanishini davom ettiradi, moliyaviy mahsulot va xizmatlarni barcha uchun qulay va ochiq qilishga intiladi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi loyihalarni izchil ravishda amalga oshirar ekanmiz, barcha manfaatdor tomonlar: aksiyadorlar, investorlar, xodimlar va mijozlar uchun foyda olishni maksimal darajada oshirishga intilamiz. Hamkorlarimiz va mijozlarimizga, hamkorlik va bizning takomillashishimizga yordam berayotgan fikr-mulohazalari uchun minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Hurmat bilan,

**Kirill Mayevskiy**

Boshqaruv Raisi









# BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari

O'zbekiston Prezidenti 2025 yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Bu biznes muhitiga ESG amaliyotlarini joriy etish uchun juda qulay payt. Biz ESG tamoyillariga amal qilish shunchaki zamonaviy standart emas, balki kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatimiz ekanligini tushunamiz. Ishonchimiz komilki, ESG tamoyillariga amal qilgan holda, biz O'zbekistonga nafaqat noyob tabiati va madaniy merosini saqlab qolishga, balki butun mintaqa uchun barqaror rivojlanish namunasiga aylanishga yordam bera olamiz. Qisqa muddatli va strategik maqsadlarimizni belgilash hamda tasdiqlash uchun bankning ESG strategiyasini ishlab chiqishga kirishdik. Shu munosabat bilan, strategiya yaratildi va yaqinda belgilangan tartibda tasdiqlandi. Shundan so'ng, unda ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

Bank Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) butun dunyo bo'lab eng muhim ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) to'liq qo'llab-quvvatlaydi va ularning ahamiyatini e'tirof etadi. Bank o'z faoliyati doirasida BMTning barcha BRMlariga erishishga hissa qo'shishga intiladi. Ammo shu bilan birga, o'z biznesining ko'lami va mintaqaviy tarkibiy qismi sababli Bank uchun BMTning to'rtta Barqaror rivojlanish maqsadi ustuvor ahamiyatga ega:

Maqsadlar	Biz qanday hissa qo'shamiz	Hisobotdagi sahifa
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Mijozlarga uzoq hududlarda xizmat ko'rsatish imkonini beruvchi raqamli ekotizimni rivojlantirish.</li> <li>Moliyaviy xizmatlarning mavjudligi: Raqamli texnologiyalar uzoq va kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun bank mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, moliyaviy inklyuziyani rivojlantiradi.</li> <li>So'hggi 5 yil ichida aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida taxminan 20 milliard so'm miqdorida homiylik yordami ko'rsatildi.</li> <li>Raqamli bank va ekotizimni rivojlantirish. Uzoq hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish.</li> <li>Elektron hujjat almashinuvi.</li> </ul>	<a href="#">20-bet</a> <a href="#">25-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bank o'z xodimlari va jamiyatning sog'lig'i hamda farovonligini saqlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu maqsadda sport tadbirlari, marafonlar va sog'lomlashtirish muassasalariga sayohatlar tashkil etiladi. 350 dan ortiq xodim marafonlarda ishtirok etdi (Toshkent, Zaamin, Buxoro va boshqalar).</li> <li>O'zbekiston Olimpiya terma jamoasini qo'llab-quvvatlash.</li> </ul>	<a href="#">24-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xodimlar uchun ta'lim beruvchi Kapital Academy ochilishi.</li> <li>Mamlakatning yetakchi mutaxassislari ishtirok etgan professional HR-tadbirlar.</li> </ul>	<a href="#">23-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Xodimlarga millati, jinsi, ijtimoiy holati va boshqa individual xususiyatlaridan qat'i nazar, teng imkoniyatlar yaratish Bankning kadrlar siyosatidagi muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, biz ushbu yondashuvni xodim va Bank o'rtasidagi barcha bosqichlarda qo'llashga intilamiz. Xodimlarning 34,7% ini ayollar tashkil etadi.</li> </ul>	<a href="#">21-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>ONA jamg'armasi bilan hamkorlikda uzoq hududlardagi suv ta'minoti tizimini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish.</li> </ul>	<a href="#">25-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Bank binolarida quyosh panellarini o'rnatish.</li> <li>Mijozlar orasida quyosh panellari o'rnatish loyihalarini kreditlash.</li> </ul>	<a href="#">26-bet</a>

# BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari

Maqsadlar	Biz qanday hissa qo'shamiz	Hisobotdagi sahifa
	<ul style="list-style-type: none"> <li>3000 dan ortiq bank xodimlari mavjud.</li> <li>O'zbekistonning eng yaxshi chakana va innovatsion xususiy banki sifatida e'tirof etildi (International Finance).</li> <li>ESG-loyihalar va HR jarayonlari bo'yicha mukofotlar.</li> </ul>	<a href="#">5-bet</a> <a href="#">18-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Barcha ijtimoiy qatlamlar uchun mavjud bo'lgan bank mahsulotlari.</li> </ul>	<a href="#">25-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>"Yashil Makon" loyihasi – 2024 yilda 40 000 dan ortiq daraxt ekildi.</li> <li>Barqaror loyihalarni moliyalashtirish.</li> </ul>	<a href="#">26-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>Elektron hujjat almashinuvini joriy etish va qog'oz sarfini kamaytirish.</li> <li>Plastik butilkalardan voz kechib, shisha butilkalarga o'tish.</li> </ul>	<a href="#">27-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>30 ta aholi punktida havo sifatini monitoring qilish datchiklari o'rnatildi.</li> <li>Masofaviy xizmat ko'rsatishga o'tish.</li> <li>Uglerod izini kamaytirish: Raqamli xizmat kanallariga (mobil ilovalar, internet-bank) o'tish, jismoniy bo'limlar va qog'oz hujjatlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, bu esa CO<sub>2</sub> chiqindilari va tabiiy resurslar iste'molini qisqartirishga yordam beradi.</li> <li>Energiya samaradorligi: Bulutli texnologiyalardan foydalanish va ma'lumotlar markazlarini optimallashtirish, bankka energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.</li> <li>Bank filiallarida quyosh panellari hisobiga energiya tejash.</li> </ul>	<a href="#">20-bet</a> <a href="#">26-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>"Yashil Makon" dasturida ishtirok etish – daraxt ekish va shaharni ko'kalamzorlashtirish.</li> </ul>	<a href="#">26-bet</a>
	<ul style="list-style-type: none"> <li>BMTning Global Shartnomasiga muvofiq korrupsiyaga qarshi siyosat.</li> <li>Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ichki nazorat va komplaiens tizimlari.</li> <li>Xalqaro korporativ boshqaruv standartlariga rioya qilish.</li> <li>Ma'lumotlarni axloqiy boshqarish.</li> <li>Ilg'or texnologiyalarni joriy etish banklardan mijoz ma'lumotlarini mas'uliyat bilan boshqarishni talab qiladi, bu esa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikni o'z ichiga oladi.</li> <li>ISO 27001, ISO 27701 va PCI/DSS xalqaro sertifikatlarini olish va tasdiqlash.</li> </ul>	<a href="#">10-bet</a> <a href="#">11-bet</a> <a href="#">14-bet</a> <a href="#">17-bet</a> <a href="#">18-bet</a>



# Umumiy ma'lumotlar

"Kapitalbank" ATB jismoniy va yuridik shaxslarga keng ko'lamli moliyaviy xizmatlar hamda mahsulotlarni taqdim etadigan bankdir. Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021 yil 25 dekabrda berilgan 69-sonli litsenziya asosida o'z faoliyatini olib boradi.

"Kapitalbank" ATB o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.


Bank tijorat bank faoliyati, jumladan kreditlar va kafolatlar taqdim etish, depozitlarni jalb etish, mijozlar uchun hisobvaraqlar ochish va yuritish, hisob-kitob-kassa xizmatini ko'rsatish, qimmatli qog'ozlar va chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bank mijozlari safiga chakana savdo, kichik va o'rta biznes, shuningdek, yirik biznes vakillari ham kiradi.



## "Kapitalbank" ATB noyob moliyaviy ekotizimni yaratdi

Ushbu ekotizimdan Kapitalbank yagona mobil ilovasi orqali foydalanish mumkin bo'lib, unda quyidagilar taqdim etilgan:

- onlayn-banking
- shaxsiy jamg'arma va investitsiyalarni boshqarish
- biznesni yuritish va operatsion nazorat
- onlayn kreditlash va sug'urtalash
- mobil aloqa va hokazo



## 2024-yilda Bank tashkiliy tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**4** ta bank xizmatlari markazi (BXM)

**16** ta filial

**88** ta mini-bank va bank xizmatlari ofislari

2023 yilda Bank O'zbekiston Respublikasining 14 ta mintaq va shaharlarida o'z faoliyatini olib bordi. Bank o'z faoliyati orqali bank xizmatlarining ommabopligini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

"Kapitalbank" ATB xodimlarining soni hisobot davri oxiriga kelib 3000 nafardan oshgan edi.

# Barqaror rivojlanishni boshqarishga bo'lgan yondashuvimiz

## Korporativ boshqaruv

"Kapitalbank" ATBning faoliyatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish muvaffaqiyatli rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bank korporativ boshqaruvni adolat, halollik, mas'uliyat, shaffoflik, professionallik va malakalilik tamoyillari asosida tashkil etilgan. Korporativ boshqaruvning samarali tuzilmasi Bank faoliyatida manfaatdor bo'lgan barcha shaxslarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishni nazarda tutadi hamda Bankning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, jumladan, uning qiymatini oshirishga, moliyaviy barqarorligini ta'minlashga va daromadlilikini saqlashga ko'maklashadi.

Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq o'zining korporativ boshqaruv tizimini uzluksiz ravishda takomillashtirib va yaxshilab bormoqda. 202... yilda Bank tomonidan Korporativ boshqaruv siyosati yangilandi.

Korporativ boshqaruv usullarini takomillashtirish maqsadida Bank ichki me'yoriy hujjatlarni yangilash, ularni xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish ustida faol ish olib bormoqda.

Bank xodimlar, mijozlar va hamkorlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha ish olib bormoqda.

## Shaffoflik va ma'lumotlarning oshkor etilishi

Shaffoflik samarali korporativ boshqaruvning zaruriy sharti hisoblanadi. Bank o'z faoliyatiga oid barcha muhim faktlar, jumladan uning moliyaviy holati, amalga oshirilgan ishlarning natijalari, mulkchilik va Bankni boshqarish tuzilmasi haqidagi ma'lumotlarning o'z vaqtida va ishonchli tarzda oshkor etilishini hamda bar-cha manfaatdor tomonlar uchun bunday ma'lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.





# Korporativ boshqaruv tuzilishi

## Kuzatuv kengashi

Bank Kuzatuv kengashining o'z boshqaruv vazifalarini yanada samaraliroq bajarishi va bank faoliyatini nazorat qilish majburiyatlarini to'liq ado etishini ta'minlash maqsadida, bank Kengashi huzurida maxsus qo'mitalar tashkil etilgan. Ushbu qo'mitalar bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi eng muhim masalalarni ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kuzatuv kengashi va Boshqaruv huzurida qo'mitalar hamda ishchi guruhlar tashkil etilgan bo'lib, bu har bir alohida yo'nalish bo'yicha muhim masalalarni atroflicha ko'rib chiqish imkonini beradi. Zarurat tug'ilganda va qonun hujjatlari talab qilgan hollarda, bunday masalalar yuzasidan ishchi organlar tomonidan qabul qilingan qarorlar bank Boshqaruvi va/yoki Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi uchun kiritiladi.

### 01 Auditorlik qo'mitasi

Hisobotlar, tavakkalchiliklar, audit ustidan va normativlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi

### 02 Xodimlarni baholash, rivojlantirish va mukofotlash qo'mitasi

Xodimlarni tanlash, baholash va rag'batlantirishga mas'ul bo'lib, mukofotlash va karyeraviy o'sish tizimini ishlab chiqadi

### 03 Bank manfaatlarini to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha komissiya

Shaxsiy yoki ishbilarmonlik manfaatlarini qarorlar qabul qilishdagi xolislikka ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlaydi, tahlil etadi va oldini oladi.

### 04 Korporativ kreditlash bo'yicha kredit qo'mitasi

Yuridik shaxslarning arizalarini ko'rib chiqadi, tavakkalchiliklarni baholaydi va korporativ kreditlar berish haqida qarorlar qabul qiladi.

### 05 Chakana kreditlash bo'yicha kredit qo'mitasi

Jismoniy shaxslar uchun kreditlarni tasdiqlash, ularning to'lov qobiliyatini tahlil etish va kredit tavakkalchiliklarini boshqarish uchun mas'uldir.

### 06 Moliyaviy qo'mita

Likvidlik, aktivlar va passivlarni boshqarishni nazorat qiladi, bankning moliyalashtirish strategiyasini va investitsiya siyosatini ishlab chiqadi

## Xavflarni boshqarish va muvofiqlik nazorati




Bankda tavakkalchilik-menejmenti, komplayens nazorati xizmatlari, ichki audit bo'linmasi, shuningdek, xususan korporativ boshqaruv masalalari uchun javobgar bo'lgan korporativ kotib mavjud.

Bank AML bo'yicha barcha mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib boradi hamda sanksiyalar masalasida tartibga soluvchi organlar talablariga to'liq rioya etadi.

Kuzatuv kengashi va Boshqaruv o'rtasidagi vazifalar taqsimoti O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ravishda amalga oshirilgan.

# Tashkiliy tuzilma



# Bank boshqaruvi

Bank Boshqaruvi doimiy faoliyat ko'rsatadigan kollegial ijro etuvchi organi hisoblanib, Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

Ushbu hisobot e'lon qilingan paytda Bank Boshqaruvi tarkibida 7 nafar a'zo, shu jumladan 1 nafar ayol bo'lgan.



**Mayevskiy Kirill Leonidovich**

*Boshqaruv raisi*



**Ismailov Sardor Samidullaevich**

*Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari*



**Glushchenko Aleksey Pavlovich**

*Boshqaruv raisining o'rinbosari*



**Tyan Konstantin Vladimirovich**

*Boshqaruv raisining o'rinbosari*



**Yenikeeva Yekaterina Aleksandrovna**

*Boshqaruv raisining o'rinbosari*



**Pachurin Vyacheslav Vladimirovich**

*Yuridik xizmatlar departamenti direktori*



**Xasanov Qahramon Axmadjanovich**

*Muvofiqlikni nazorat qilish departamenti direktori*



# Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish



## Bankda Korporativ boshqaruv kodeksi va siyosati amalda joriy etilgan.

Hujjatlarning maqsadi korporativ boshqaruvni takomillashtirish, boshqaruv shaffofligini ta'minlash va tegishli korporativ boshqaruv standartlariga rioya qilinayotganligini tasdiqlashdan iborat.

# Ishbilarmonlik etikasi va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik

"Kapitalbank" ATB biznesni axloqiy va adolatli yuritish, manfaatdor tomonlar bilan muloqotda halollik va ochiqlik tamoyillariga amal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bank amaldagi qonunchilikka hurmat bilan qaraydi va unga qat'iy rioya etadi, shuningdek, ochiqlik va shaffoflik madaniyatini rag'batlantiradi.

## Bankda xodimlarning axloqiy xulq-atvor qoidalari amal qi-ladi, shuningdek, 2024 yilda Odob-axloq kodeksi ishlab chi-qilgan.

Odob-axloq kodeksi "Kapitalbank" ATB bilan aloqador bo'lgan va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi doirasida hamda undan tashqarida olib boradigan barcha shaxslarga taalluqlidir.

Kodeks korporativ boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi va u har bir xodimning samaradorligini oshirishga, o'zaro hamkorlik va tushunishni yaxshi-lashga, mehnat axloqi va ish-bilarmonlik madaniyati bilan bog'liq murakkab, ikki xil ma'noli vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu orqali xodimlarning xulq-atvoriga oid me'yorlar belgilanadi. Odob-axloq kodeksi Bankning barcha xodimlariga, ularning lavozimidan qat'i nazar, tatbiq etiladigan umumiy majburiy qoidalarni o'z ichiga oladi. Kodeks xodimlarimiz Bank ulardan nimani kutayotganini anglaydi-gan ochiq, xilma-xil va inklyuziv muhitni yaratishga ko'mak-lashish uchun mo'ljallangan.



# Ishbilarmonlik etikasi va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik



## Manfaatdor tomonlar



## O'zaro hamkorlik maqsadlari



## O'zaro hamkorlik mexanizmlari

### Aksiyadorlar va investorlar

- Moliyaviy faoliyat natijalari va yutuqlari haqida o'z vaqtida va ishonchli axborot taqdim etish.
- Samarali boshqaruv va muhim qarorlarni qabul qilish.
- Bank faoliyati bo'yicha fikr-mulohazalarni olish.
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari;
- Turli aloqa vositalari orqali muloqot olib borish (uchrashuvlar, taqdimotlar, elektron pochta yozishmalari);
- IR va korporativ e'lonlar (matbuot relizlari, veb-sayt);
- Ommaviy hisobotlar;
- Bank rahbariyati va vakillarining investitsiyaviy tadbirlar hamda anjumanlarida ishtirok etishi;
- Ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq ravishda korporativ boshqaruv tizimlarini joriy qilish.

### Mijozlar

- Bankda xizmat ko'rsatish sifati haqida mijozlarning fikr-mulohazalarini to'plash;
- Mijozlarni bank va undagi xizmat ko'rsatish haqida o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor qilish;
- Axborot xavfsizligi va ma'lumotlar maxfiylikini ta'minlash;
- Mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish;
- Mijozlarning bankka bo'lgan sodiqligini oshirish;
- Bo'limlarda xizmat ko'rsatish paytidagi qoniqish darajasini o'lchash;
- Call-markazda xizmat ko'rsatish paytidagi qoniqish darajasini o'lchash;
- Internet-banking;
- Call-markaz;
- Bo'limlarda va mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish;
- Ommaviy hisobotlar;
- Internetdagi e'lonlar;
- OAVdagi e'lonlar;
- Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari

### Xodimlar

- Bankda ishlash sharoitlari to'g'risida fikr-mulohazalarni yig'ish;
- Xodimlarni bank haqida: uning strategiyasi va faoliyat natijalari to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor qilib borish;
- Xodimlarning bankka ish beruvchi sifatida sodiqligini oshirish
- Xodimlar o'rtasida so'rov o'tkazish, shu jumladan jalb etilganlik darajasini baholash;
- Qoidabuzarliklar to'g'risida anonim xabar berish kanali;
- Kadrlar siyosati va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
- O'qitish, kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish;
- Korporativ tadbirlar;
- Ommaviy hisobotlar.

# Ishbilarmonlik etikasi va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik



## Manfaatdor tomonlar



## O'zaro hamkorlik maqsadlari



## O'zaro hamkorlik mexanizmlari

### Jamiyat

- Bank faoliyati haqidagi xabardorlikni va unga bo'lgan ishonchni oshirish;
- Bank va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;
- Bank faoliyati to'g'risida fikr-mulohazalarni yig'ish
- Volontyorlik (ko'ngillilar), ijtimoiy va xayriya loyihalari;
- Ta'lim dasturlari, ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik;
- Call-markaz va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot;
- Korporativ e'lonlar (press-revizlar, veb-sayt),
- Matbuot anjumanlari, intervyular;
- Ommaviy hisobotlar
- Ilg'or xalqaro tajribalar

### Yetkazib beruvchilar va hamkorlar

- Xaridlar va shartnomalar bo'yicha o'zaro majburiyatlarning bajarilishi;
- Bank faoliyati haqidagi xabardorlikni va unga bo'lgan ishonchni oshirish;
- Bank va etkazib beruvchilar, hamkorlar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;
- Xarid qilish tartib-taomillari bo'yicha o'zaro hamkorlik, tenderlar va xarid qilish rejaları to'g'risidagi axborot;
- Ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonidagi o'zaro hamkorlik, shartnomaviy munosabatlar,
- Yig'ilishlar, uchrashuvlar o'tkazish, konferens-qo'ng'iroqlar, korporativ e'lonlar (press-revizlar, veb-sayt), xabarnomalar yuborish;
- Ommaviy hisobotlar

### Davlat boshqaruvi organlari, regulyatorlar

- Bank faoliyati sohasidagi qonunchilik talablari va me'yorlariga rioya etilishi, shuningdek faoliyat natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida oshkor etilishini ta'minlash
- Operatsion va tartibga solish tavakkalchiliklarini kamaytirish.
- Bank faoliyati, atrof-muhit va ijtimoiy munosabatlar sohasidagi qonunchilik talablari va me'yorlariga rioya etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq va o'z vaqtida oshkor etilishi;
- Moliya sektorini rivojlantirish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha yig'ilish va uchrashuvlarda ishtirok etish;
- Aloqa vositalari orqali xabarnoma berish;
- Qonunchilikda talab etilgan barcha soliqlar va to'lovlarni amalga oshirish;
- Zarur litsenziya, ruxsatnoma va xulosalarni olish hamda qonuniylikka rioya etish;
- Ommaviy hisobotlar



# Korrupsiyaga qarshi kurashish

Bank korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, shuningdek, Bank xodimlarining noqonuniy, axloqsiz, korrupsiyaviy xatti-harakatlarini (jumladan uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ham), minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga intiladi.

Bank o'z kundalik faoliyatida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga amal qiladi. Biz korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ilg'or standartlarga, jumladan BMTning Global shartnomasi tamoyillariga sodiq qolishni ta'minlashga intilamiz.

## Bankda Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Kor-rupsiyaga qarshi siyosat amalda joriy etilgan.

Siyosat talablari Bankning barcha xodimlari tomonidan so'zsiz bajarilishi shart. Ushbu Siyosat Bank, shuningdek, uning rahbar xodimlari va ishchilarini korrupsiyaviy faoliyatga aralashib qolish xavfini kamaytirishga va korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilgan samarali mexanizmlarni qo'llash maqsadida ishlab chiqilgan.

Biz firibgarlikning har qanday ko'rinishiga, korrupsiyaning barcha shakllariga, raqobat qoidalarini buzishga, kamsitish yoki tazyiqlarga mutlaqo toqat qilmaymiz va ularga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lamiz. Bank siyosiy qarorlarga ta'sir o'tkazish vazifasini bajaruvchi siyosiy kampaniyalar, siyosiy tashkilotlar, savdo uyushma-lari yoki boshqa soliqdan ozod etilgan guruhlarini moliyalashtirmaydi. Biz Bankning muayyan loyihalarida tijorat afzalliklariga ega bo'lish maqsadida xayriya va homiylik loyihalariga mablag' ajratmaymiz.

Bank xodimlariga korrupsiyaviy hisoblanadigan har qanday shakldagi harakatlarni sodir etish qat'iyan man etiladi. Bunday harakatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi (ammo ular bilan cheklanmaydi): pora berish, pora olish, pora olish-berishda vositachilik qilish, tijorat poraxo'rligi, vakolatlarini suiiste'mol qilish va moliyaviy yoki boshqa foyda yoxud imtiyozlar olish maqsadida Bankning qonuniy manfaatlariga zid ravishda o'z lavozim mavqeidan boshqa tarzda noqonuniy foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etgan xodimlar va boshqa shaxslarni javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan.



# Kiberxavfsizlik

Axborot aktivlarining xavfsizligini ta'minlash va ularning maxfiyligini himoya qilish Bank faoliyati doirasida muhim vazifalar bo'lib qolmoqda.

Bank ichidagi axborot xavfsizligi departamenti firibgarlik, tovlamachilik, o'g'irlik va ma'lumotlarning sizib chiqishi bilan bog'liq muammolar bilan shug'ullanadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lumotlar sizib chiqishidan, kiber hujumlardan, virusli faollikdan, Bank resurslariga ruxsatsiz kirishdan, nusxa ko'chirishdan, ruxsatsiz o'zgartirishlardan va boshqalardan himoya qilish tizimlari qo'llaniladi.

Kelgusida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun Bank tizimlarni yangilash va sozlash, antivirus joriy etish, shuningdek, axborot xavfsizligi sohasidagi qoidalar, siyosat va himoya tizimlarini aktual holatda saqlab turish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.



Xalqaro ISO 27001 va ISO 27701 hamda PCI/DSS sertifikatlarini olish va tasdiqlash orqali bank barcha manfaatdor tomonlarga eng yaxshi jahon amaliyotlariga tayangan holda o'zining zaruriy tekshiruvlarini o'tkazishni va o'z axborot aktivlarining maxfiyligi, yaxlitligi va xavfsiz kirishni ta'minlashini ko'rsatishi mumkin.




# Eko-tizim

## Uzum — texnologiyalar orqali kundalik hayotni yaxshilashga qaratilgan O'zbekistondagi eng yirik elektron tijorat va fintex ekotizimi.

Uzum iste'molchilar va biznesning kundalik ehtiyojlariga yo'naltirilgan ko'plab xizmatlar, jumladan, onlayn-shopping, dastlabki to'lovsiz oson va hammabop muddatli to'lov xizmati, O'zbekistondagi millionlab mijozlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlarini birlashtiradi.

### Moliyaviy xizmatlarning hammabopligi

Raqamli texnologiyalar uzoq masofadagi va kam ta'minlangan aholi qatlami uchun bank mahsulotlariga kirish imkoniyatini kengaytirib, moliyaviy inkluziyani rag'batlantiradi.



## UZU eko-tizimi

### KAPITALBANK

O'zbekistondagi 1-raqamli xususiy tijorat banki

**3 339**

Xodimlar soni

**81 438**

Korporativ mijozlar

**2 126 407**

Individual mijozlar



### Uzum Bank

Mamlakatning eng yaxshi neobanki

**13%** O'zbekiston onlayn-to'lovlari bozor ulushi

**> 700 ming**

Kartalar berildi



### Uzum Market

Keng tanlov va butun mamlakat bo'ylab tezkor yetkazib berish xizmati bilan savdo maydoni

**19 mln**

Buyurtmalar

**12 ming**

Sotuvchilar



### Uzum Tezkor

Kafe, restoran va do'konlardan tezkor yetkazib berish

**2,400**

hamkor kafelar, do'konlar va restoranlar

**18**

Shaharlar




### Uzum Nasiya

Mamlakatdagi eng yirik muddatli to'lovlari xizmati

**40%** BNPLning O'zbekistondagi bozor ulushi

**\$421 mln**

Umumiy to'lov miqdori va mikroqarz hajmi



### Uzum Business

Tadbirkorlar uchun ekotizimimizning barcha xizmatlarini birlashtirgan universal platforma.



### Uzum Avto

Aktual ma'lumotlar bazasiga ega va atigi 2 daqiqada hamkor-banklarning tezkor onlayn-kreditni ma'qullash imkoniyati mavjud bo'lgan avtomobillar oldi-sotdi platformasi. O'zbekiston Respublikasi bo'ylab 120 dan ortiq diler-hamkorlar.



# Onlayn xizmat ko'rsatish

Masofaviy bank xizmati (MBX) - moliya sektorining raqamli transformatsiyasi uchun asosiy elementdir. U mijozlarga internet-banking, mobil ilovalar, aloqa markazlari va boshqa raqamli kanallardan foydalangan holda bo'linmalarga tashrif buyurmasdan bank xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Zamonaviy texnologiyalar xizmat ko'rsatish sifatini oshirib, mijozlar uchun ham, bankning o'zi uchun ham katta afzalliklarni ta'minlagan holda MBXni qulay, tezkor va xavfsiz qiladi. Bundan tashqari, u atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilash va resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish orqali barqaror rivojlanishga yordam beradi



## Ekologiklik

Qog'oz hujjatlar aylanmasidan voz kechish tabiiy resurslar iste'molini qisqartiradi, o'rmonlarning kesilishini kamaytiradi va qog'oz ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan suvni tejaydi. Ofislarga tashriflar sonining kamayishi transport infratuzilmasidagi yuklama darajasini pasaytirish va atrof-muhit holatini yaxshilash orqali Co<sub>2</sub> ajralib chiqishini kamaytiradi. Filiallar ishini optimallashtirish, shuningdek, elektr energiyasi iste'molini va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.



## Resurslarni tejash

raqamlashtirish ofislarni ijaraga olish va saqlash, shuningdek qog'oz hujjatlarni qayta ishlash xarajatlarini minimallashtiradi. Jarayonlarni avtomatlashtirish mijozlarga xizmat ko'rsatishni tezlashtiradi, xodimlarning ishini optimallashtirishga va bank resurslarini yanada muhim vazifalarga qayta taqsimlashga imkon beradi.




## Hammaboplik

onlayn-banking barcha mijozlar, shu jumladan, imkoniyati cheklangan insonlar va uzoq mintaqalar aholisi uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Moliyaviy xizmatlar kecha-yu kunduz mavjud bo'lib, bu ayniqsa ishlaydigan foydalanuvchilar va biznes uchun juda muhimdir. Elektron to'lovlar va mobil ilovalar moliyalar boshqaruvini soddalashtiradi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga yordam beradi.



## Xavfsizlik va shaffoflik

raqamli texnologiyalar moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish darajasini oshiradi va firibgarlik ehtimolini minimallashtiradi. Qog'oz hujjat aylanmasini istisno qilish maxfiy ma'lumotlarni yo'qotish, qalbakilashtirish va ularning sizib chiqish xavfini kamaytiradi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data) shubhali operatsiyalarni tezda aniqlashga va moliyaviy jinoyatlarning oldini olishga imkon beradi.



# Ijtimoiy mas'uliyat

## Xodimlarni boshqarish

Bank moliyaviy sektordagi yirik ish beruvchilardan biri sifatida, xodimlarni boshqarish yondashuvlarini takomillashtirishning ahamiyatini tushunadi va eng maqbul vositalarni joriy etish, shu bilan birga, o'z samaradorligini isbotlagan eng yaxshi amaliyotlarni saqlab qolishni ham unutmagan holda muntazam ravishda bu masala ustida ishlaydi.



Bankning ustuvor vazifalaridan biri strategik maqsadlarga erishish va bank oldida turgan muammolarni hal etishga yo'naltirilgan malakaviy talablarga mos keladigan xodimlar jamoasini shakllantirish hamda saqlab turishdan iborat.

Xodimlar uchun, ularning millati, jinsi, ijtimoiy mavqei va boshqa individual xususiyatlaridan qat'i nazar teng imkoniyatlar yaratish Bank kadrlar siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Biz mazkur yondashuvni xodimning Bank bilan munosabatlarining barcha bos-qichlarida qo'llashga harakat qilamiz.

Jinsiy nisbat

Erkaklar

65,3 %

Ayollar

34,7 %



# Ijtimoiy himoya

Bank xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash siyosati jamoani barqarorlashtirish va har bir xodimga g'amxo'rlik qilishga qaratilgan. Bank "Kapitalbank" ATB xodimlariga ish haqi to'lash va moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi Nizomga muvofiq ishchilarga keng ijtimoiy paketning tarkibiga kiruvchi imtiyozlar va kompensatsiyalarni taqdim etadi.

## Qoidalarda Bank xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning quyidagi turlari ko'zda tutilgan:

01

### Moddiy yordam

Moddiy yordam xodimlarga quyidagi hollarda to'lanadi:

- nikoh munosabati bilan;
- farzandli bo'lish/farzand asrab olish munosabati bilan;
- xodim yoki uning oila a'zolarining davolanishi/operatsiya qilinishi munosabati bilan;
- xodimning/xodimning oila a'zolarining o'limi munosabati bilan.
- yong'in va boshqa tabiiy ofatlar tufayli shaxsiy mol-mulkni yo'qotish bilan bog'liq boshqa hollarda, shuningdek, alohida shaxsiy holatlar munosabati bilan

02

### Farzand parvarishi ta'tili



03

### Bayram kunlari uchun mukofotlar



04

### Kasaba uyushmasi qo'mitasi

Bankda Bank xodimlarining vakili sifatida Kasaba uyushmasi qo'mitasi mavjud bo'lib, xodimlar o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilishni unga ishonib topshiradi.

- Bank kasaba uyushmasi ishchilar va ularning farzandlari salomatligini qo'llab-quvvatlash uchun sihatgohlar va bolalar yozgi lagerlariga yo'llanmalar tashkillashtiradi. Chipta narxining 50 foizi kasaba uyushma fondidan va qolgan 50 foizi ishchi tomonidan to'lanadi.





# Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish

Bankning asosiy vazifalaridan biri strategik maqsadlarga erishish va bank oldida turgan muammolarni hal etishga yo'naltirilgan malakaviy talablarga mos keladigan xodimlar jamoasini shakllantirish hamda saqlab turishdan iborat.

Biz mavjud ta'lim va rivojlanish dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirishga, shuningdek, biznes va xodimlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda yangi dasturlarni joriy etishga intilamiz. O'qitish jarayonini yanada qulayroq qilish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda.

**2024 yilda muhim voqea sodir bo'ldi: Kapitalbank o'z xodimlarini o'qitish uchun maxsus akademiya tashkil etdi.**



Kapitalbank Akademiyasida xodimlar o'zlarining kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli yo'nalishlar bo'yicha bepul ta'lim olish imkoniyatiga ega. Xodimlarni rivojlantirish ko'rsatilyotgan xizmatlar si-fatini va mijozlar mamnuniyatini belgilovchi asosiy omillar-dan biridir. Xodimlarni o'stirishga sarmoya kiritish Kapitalbankka bozordagi o'rnini mustahkamlashga, raqobatbardoshligini oshirishga va jamoada ham-jihatlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Kapitalbank mamlakatimizdagi yetakchi kompaniyalarning mutaxassislarini birlashtirgan bir qator professional tadbirlarni uyushtirdi.

**Bu yil bank Kapital Academy negizida HR -mutaxassislar uchun**

**5 ta referens-tashrif uyushtirdi**

Bunday tashriflarni tashkil etishning asosiy maqsadi HR sohasidagi mutaxassislar o'rtasida tajriba almashishdan iborat. Jumladan, uchrashuv ishtirokchilari 2023 yildagi faoliyatlarini natijalarini o'rtoqlashib, 2024 yil uchun HR funksiyalarini rivojlantirish rejalarini belgiladilar. Shuningdek, ular HR yo'nalishining asosiy o'sish va rivojlanish nuqtalarini yaqqol aks ettiruvchi loyihalar taqdimotlarini namoyish etdilar.

Kapitalbank O'zbekistonda HR jarayonlari auditidan muvaffaqiyatli o'tgan va xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi "Top employer" sertifikatini qo'lga kiritgan birinchi bank bo'ldi.



Top Employers Institute xalqaro auditorlik kompaniyasi BDO bilan hamkorlikda Kapitalbankning HR biznes jarayonlari va xodimlar bilan ishlash amaliyotlarining xalqaro standartlarga mosligini tekshirdi. Audit natijalariga ko'ra, Kapitalbank O'zbekistonda Top Employer sertifikatini qo'lga kiritgan ilk bank bo'ldi.

Top Employer Institute — bu 30 yildan ortiq vaqt davomida eng yaxshi ish beruvchilarni sertifikatlashtirish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilot.

# Volontyorlik faoliyati va korporativ tadbirlar

## Sport va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash



**1** 2024 yil davomida Kapitalbankning 350 dan ortiq xodimi beshta xalqaro yugurish musobaqasida - 6-Toshkent xalqaro marafoni, City Run Kokand yugurish musobaqasi, har yili o'tkaziladigan Samarqand marafoni, Zomindagi marafon va Buxoro shahrida har yili o'tkaziladigan marafonda ishtirok etdi.



**3** 27-29 sentyabr kunlari Toshkentda "Kapitalbank" ko'magida "Uzbekistan Open 2024" xalqaro ochiq golf turniri bo'lib o'tdi. Bu yil 12 mamlakatdan 120 nafar sportchi turnir ishtirokchisiga aylandi.



**2** Kapitalbank 2024 yilda Parijda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun dunyoning eng yaxshi 16 ta jamoasi orasidan tanlab olingan O'zbekiston olimpiya terma jamoasini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Uzbekistan's Club" tomonidan tashkil etilgan keng ko'lami vatanparvarlik loyihasining ishtirokchisi bo'ldi.



**4** 30 noyabr kuni futbol faxriylari uchun xayriya o'yini o'tkazildi. 70 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan futbolchilar ishtirok etgan ushbu uchrashuvni "Kapitalbank" va Toshkent futbol uyushmasi tashkil etdi.

**5** Har yili o'tkaziladigan Global Money Week doirasida Kapital-bank O'zbekiston Markaziy banki bilan birgalikda Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy va Samarqand shaharlaridagi 25 ta maktab va 2 ta universitetda yoshlar o'rtasida seminarlar o'tkazdi.



# Xayriya ishlariga investitsiyalar

"Kapitalbank" ATB xayriya maqsadlarida turli jamg'arma va tashkilotlarga muntazam ravishda sarmoya kiritib kelmoqda.

## Sportga investitsiyalar

> 3 mln \$

Asosiy benefitsiarlar:

- 1 O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi
- 2 O'zbekiston badminton federatsiyasi
- 3 Milliy Olimpiya qo'mitasi
- 4 Ekstremal va tog' turizmi federatsiyasi
- 5 O'zbekiston sport kurashlari assotsiatsiyasi



## San'atga investitsiyalar

> 1 mln \$

Asosiy benefitsiarlar:

- 1 O'zbekiston Madaniyati va san'atini rivojlantirish jamg'armasi
- 2 O'zbekiston davlat teatrlari
- 3 Yangi yil tadbirlarini tashkil etish;



## Aholiga ko'maklashish ishlariga investitsiyalar

1,5 mln \$

Asosiy benefitsiarlar:

- |                               |  |
|-------------------------------|--|
| 1 "VAQF" xayriya jamoat fondi | 3 Mahalla qo'mitalari orqali investitsiyalar |
| 2 Kasaba uyushma qo'mitasi    | 4 "ONA" jamg'armasi                          |



# "Yashil shahar" loyihalari

"Kapitalbank" ATB o'z siyosati doirasida ekologiya va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish masalalariga chuqur e'tibor qaratadi

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024 yilda bank xodimlari

> 40 ming  
daraxt ekishdi



Kapitaldankning bu yilgi asosiy yutuqlaridan biri "Havo" loyihasi uchun "Oltin chinor" Birinchi Milliy mukofotiga sazovor bo'lgani bo'ldi.

Ushbu tashabbus doirasida Kapitaldank butun mamlakat bo'ylab havo sifatini nazorat qiluvchi zamonaviy datchiklarni o'rnatdi. Bu loyiha nafaqat atmosfera holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi, balki jamiyatni ekologik muammolarni tushunish va ularni hal etishga jalb qilishga yordam beradi.

30 ta aholi  
punktiga  
datchiklar o'rnatildi

Bank tomonidan respublika bo'ylab filiallarning tom qismiga quyosh panellari o'rnatildi.


Ushbu loyiha bank filiallariga muqobil va ekologik toza energiya manbasini olish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, ortiqcha energiyani boshqa ehtiyojmand subyektlar bilan baham ko'rishga imkon beradi.



Plastik va qog'oz chiqindilarini kamaytirish,



shuningdek, plastik idishlardan voz kechib, shisha idishlarga o'tish jarayoni olib borilmoqda





# Elektron hujjat aylanishi

Bankning ekologik barqarorlikka intilishiga mos ravishda, asosiy e'tibor raqamli yechimlarga qaratilmoqda. Bu yondashuv butun tashkilot miqyosida qog'oz sarfini va jismoniy materiallardan foydalanishga qaramlikni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan.

Bunday yondashuvning joriy etilishi nafaqat Bankdagi jarayonlarni optimallashtirish, balki undagi qog'ozbozlikni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. Shuningdek, u yanada ekologik toza va barqaror kelajakka intilishimizni ham ko'rsatib berdi.

## Elektron hujjat aylanishining afzalliklari



### Qog'oz sarfining kamayishi

Bir yil davomida raqamli tizimlarning keng joriy etilishi qog'oz mahsulotlari hajmini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. So'nggi 40 yil ichida qog'oz sarfi 400 foizga ko'paydi, bu esa ekotizimlar, bioxilma-xillik va iqlimga bo'lgan yuklamani oshiradi. Kesilgan daraxtlarning 35 foizidan ortig'i qog'oz ishlab chiqarishga sarflanadi, shu sababli atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan muqobil variantlarni izlash muhim ahamiyat kasb etadi.



### CO2 chiqindilari kamayadi

An'anaviy hujjat aylanishi ko'pincha transport vositalari, xususan, kuryer xizmatlari yordamida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida havoga karbonat angidrid (CO2) va boshqa ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishiga sabab bo'ladi.



### Hujjatlarni samarali boshqarish va chiqindi miqdorini kamaytirish

EHA ma'lumotlarni boshqarish va saqlashni soddalashtiradi, chiqindilarni kamaytiradi hamda ma'lumotlarni qidirish, arxivlash va tahrirlashni osonlashtiradi. Raqamli hujjatlar buzilmaydi va ulardan istalgan qurilma orqali foydalanish mumkin.

2025 yilda taxminan

**≥ 1 000 000**  
ta A4 formatli qog'ozni  
tejavshni rejalashtirmoqdamiz



bu taxminan

**150-200**  
ta katta yoshdagi  
daraxtga teng



Kapitalbankning barcha bankomatlarida chek chop etishdan voz kechish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shish imkoniyati mavjud



# Kontaktlar

---

 Pochta

[esg@kapitalbank.uz](mailto:esg@kapitalbank.uz)

 Telefon

1304

 Sayt

[kapitalbank.uz/esg](https://kapitalbank.uz/esg)



Saytga o'tish  
uchun skanerlang